

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Shermuhammadov, O.Raxmatov Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni informatsion madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi.....	8
B.Shermuhammadov, D.Namozova Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kreativ kompetentligini takomillashtirish modeli.....	13
B.Shermuhammadov, B.Baratov Bo'lajak o'qituvchilarni uzliksiz ma'naviy tarbiya jarayonida ma'naviy-madaniy fazilatlarini rivojlantirish shart-sharoitlari	18
D.Yuldasheva, R.Bekmagambetova, Sh.Matkarimova Bolalar poetik matnlarini pedagogik dizayn vositasida o'rgatish.....	22
B.Qurbonova Hamkorlik pedagogikasi asosida oliy ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish	25
I.Siddiqov Bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari	29
A.Xo'jayev Kadrlar tayyorlash sifatini monitoring qilishda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	33
X.Qodirov Professional-pedagogik madaniyatning xossasi sifatidagi innovatsionlikning shaxsiyat darajasida namoyon bo'lish tasniflari	38
B.Baydjanov Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash samaradorligi	42
A.Turaxanov Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talaba (kursant)larida jismoniy-taktik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	49
R.Madaliyev Talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarning ahamiyati.....	52
X.Yulbarsova Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida	56
A.Soyibnazarov Ta'limda yangicha yondashuv tahlili: smart ta'lim.....	62
S.Kamchiyev Ertalabki gimnastikani kichik va o'rta guruhlarda o'tkazish usullari va mohiyati.....	67
N.Mamatqulova Ta'limda kredit-modul tizimini qo'llashning ayrim jihatlari	71
S.Sulaymanova Tasviriy san'at fanlarida perspektivaning muhim ahamiyati va uning qo'llanilish xususiyatlari.....	75
M.Aripjanova Professional ta'lim o'quvchilarining kasbiy kompetentsiyalariga talablar tahlili	80
D.Yo'ldosheva Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik usullari	83
N.Dusimbetova Bo'lajak jurnalistlarda axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirishning amaliyotdagi holati.....	88
T.Turgunbayev Harbiy ta'limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda (kursantlarda) vatanparvarlikni rivojlantirishning pedagogik shakli, metodi va vositalari	92
N.Yuldasheva Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish borasidagi metodik yondashuvlar	95

**BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINING KREATIV KOMPETENTLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH MODELI**

**MODEL OF THE DEVELOPMENT OF THE CREATIVE COMPETENCE IN FUTURE
MUSIC TEACHER**

**МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ
МУЗЫКИ**

**Shermuhammadov Boxodirjon Shermuhammadovich¹,
Dilorom Namozova Tursunovna²**

- ¹**Shermuhammadov Boxodirjon Shermuhammadovich** – Farg'ona davlat universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor
²**Dilorom Namozova Tursunovna** – Farg'ona davlat universiteti, tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchisini kreativ kompetentligini takomillashtirish bo'yicha model ishlab chiqilgan. Ushbu modelda bo'lajak musiqa o'qituvchisining o'z ustida ishlashi va o'z-o'zini baholab, kasbiy bilimlarini takomillashtirib borishi ko'zda tutilgan.

Аннотация

В данной статье разработана модель повышения творческой компетентности будущего учителя музыки. Эта модель предусматривает работу будущего учителя музыки над собой и самооценку, совершенствование своих профессиональных знаний.

Abstract

This article developed a model for improving the creative competence of the future music teacher. This model provides for the work of the future music teacher on himself and self-assessment, improving his professional knowledge.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kreativ, deontologiya, izchil, samaralilik, befarqlik, mas'uliyasizlik, loqaydlik, mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik, faollik, konstruktivlik.

Ключевые слова: компетентность, креативность, деонтология, последовательность, эффективность, безразличие, безответственность, апатия, трудолюбие, ответственность, активность, конструктивность.

Key words: competence, creativity, deontology, consistency, efficiency, indifference, irresponsibility, apathy, diligence, responsibility, activity, constructiveness.

KIRISH

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 02.02.2022 yildagi PQ-112-son qarorida belgilangan 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab ta‘lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo‘lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste‘dodlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi” va shunga o‘xshash musiqa san‘atini rivojlantirish maqsadida bir qator qarorlar qabul qilingani buning yaqqol tasdig‘idir[1]. Aynan ana shu qaror va murojaatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kreativ kompetentligini takomillashtirishdagi ilmiy izlanishlar samarasi kadrlar tayyorlash masalasi e‘tiboriga molikdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT USHLUBLARI

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etar ekanmiz, pedagog olim N.A. Muslimov boshchiligidagi tadqiqotchilar pedagogik kompetentlik va pedagogik kreativlik asoslari, hamda bo‘lajak professional o‘qituvchilarning kasbiy professionaligini shakllantirish va oshirish bo‘yicha qator izlanishlar olib borganlar[2]. N.A. Muslimov o‘z tadqiqotlarida pedagogik kompetentlik va pedagogik kreativlikning tuzilishi va mazmuni, uning o‘ziga xos jihatlari, pedagogik kreativlik potentsiali va uning darajasini aniqlash mezonlari masalalarini yoritib bergan. Tadqiqotlarda alohida e‘tibor pedagog va talabalarda kompetentlik va kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan hamda talabalarda tanqidiy, o‘zini–o‘zi (motivatsion, intellektual, amaliy – faoliyatli, faol kommunikativ va jamoaviy ish) kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llari hamda kreativ fikrlashni shakllantirish usullarini ko‘rsatgan [3].

Pedagog olimi O.Musurmonova ta'lim-tarbiya nazariyasiga bog'liq o'z darsligida[4] pedagogik kompetentlik masalalari, ayniqsa o'qituvchilarning fanlar bo'yicha kompetentlikka ega bo'lishligini alohida ko'rsatib o'tgan. Darslikda kasbiy kompetensiyalar, pedagogning kasbiy kompetensiyalari, fanlar bo'yicha ayniqsa umumiy fanlar bo'yicha maxsus kompetensiyalar, ularning tasnif va ta'riflari, ularni ta'lim ishtirokchilarida shakllantirish bosqichlari va pedagog kasbiy kompetentligi yo'nalishlarini asoslab berilgan.

Pedagog olimi I.YE. Bryakova [5] pedagog – adabiyotshunosning kreativ kompetensiyasi talaba-filolog adabiy-ijodiy qobiliyatini rivojlantirish omili ekanligini hamda ta'limni raqamlashtirish davrida pedagogning kreativ kompetentligi – bu ta'limni yangi vektori ekanligini ko'rsatib bergan.

Pedagog tadqiqotchi A.I. Avazboyev o'z tadqiqotida [6] talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari, kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari uchun o'quv va tarbiya jarayonida yangi g'oyalarini yaratish haqidagi fikrlarini keltirgan. Muallif kreativlik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va kreativlik nazariyachilarining, ayniqsa pedagog olimi G.N. Ibragimova talabalarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishda interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalarini qo'llashga doir ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan[7].

Tadqiqotchi S.Sh.Akbarova ilmiy maqolasida globallashuv jarayonida kreativ kompetensiyalar va ularni mustaqil ta'limga qo'llash yo'llari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek talabalar kreativ kompetensiyalarga ega bo'lishlari uchun ulardan ta'lim – tarbiya jarayonida an'anaviy yondashuvlardan farqli yangi g'oyalar haqida fikrlash, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik talab etilishi haqida fikr yuritgan. Ta'lim oluvchilardagi kreativlik qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlash mezonlarini ko'rsatib o'tgan[8].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ishda bo'lajak musiqa o'qituvchisini kreativ kompetentligini takomillashtirish modellari ishlab chiqildi. Tadqiqot davomida bo'lajak musiqa o'qituvchisi kasbiy bilimlarini oshirish o'z ustida ishlash va o'z-o'zini baholash hamda kasbiy bilimlarini takomillashtirib borish usul va vositalaridan foydalanildi.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Zamonaviy davrda pedagogik ilmlar tasnifida aynan mutaxassis-kadr kompetensiyasi masalasi o'z dolzarbligi, katta qiziqish uyg'otayotganligi va ta'lim jarayonini tashkil qilish, uning samaradorligini ta'minlash uchun muhimligi va zaruriyatini namoyon etmoqda. Faol va harakatchan, tashabbus ko'rsatib, o'zining professional maqsadlarini aniq anglaydigan, innovatsion tafakkurga ega va ta'limda yangiliklarni amalga oshirishga tayyor o'qituvchi kompetensiyasini shakllantirish va ta'minlash, bu masalasini ta'lim va tarbiya jarayonining eng muhim unsurlaridan biri ekanligini targ'ib qilish taqozo etilmoqda[9].

O'qituvchi — muallimlarning shaxsiy ijtimoiy sifatlariga azaldan e'tibor qaratib kelingan va har bir zamon talabidan kelib chiqib, pedagogga qo'yiladigan talablar takomillashib, murakkablashib boravergan.

Ayniqsa, bo'lajak musiqa o'qituvchisini kreativ kompetentligini takomillashtirish hozirgi davrga kelib pedagogik zaruratga aylandi.

Zardo'sht ta'limotida, "muallim — kohlarning burchlari bolalarga bilimlarni yaxshilik yo'sinida o'rgatib, ularni yaxshi bilan yomonni ajratadigan qilib tarbiyalash va to'g'ri yo'lga hidoyat etishdir" deyilgan. Uning "yasht"larida aql-u farosat bilan, yomonlikka qarshi kurashni amalga oshirib, bolalar ruhiyatiga rost so'z, pok aqida, halol niyatni singdiradigan ustoz-muallimlar peshvosi madh qilinadi.

Shuningdek, "Avesto"ning "Yasht"larida tanballigi, befarqligi, mas'uliyatsizligi, loqaydligi, farosatsizligi, o'quvsizligi, bilimi va malakasini takomillashtirmasligi oqibatida bolalar zehni, ularning mustaqil tafakkurini o'tmaslashtiradigan, ayni chog'da, yoshlarning aqlini "zanglatadigan", hayotga, mehnatga munosabatlarini susaytiradigan, imon-e'tiqodini zaiflashtirib, ma'naviy jihatdan qashshoqlashtiradigan "Yomon ustozlar" qattiq qoralanadi.

Zardushtning oliy tangri Ahuramazda bilan muloqotida ham yaxshi va yomon ustozlar haqida shunday deyiladi: "Noshud, yomon muallim o'quvchi qalbidan hunarmandchilikni yo'qotar ekan, ey yazdon, yomon ustozdan o'zing asra".

Talabalarga bilim berish o'qituvchining mas'uliyatli burchidir, deb Ibn Sino o'qituvchining shaxsiyati qanday bo'lishi kerakligi haqida quyidagi fikrlarni bildirgan:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- beriladigan bilimni talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish;
- ta'limda turli usul va shakllardan foydalanish;

PEDAGOGIKA

- talabning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- fanga qiziqitira olish;
- berilgan bilimlarning eng muhimini ajratib o'qitish;
- bilimlarni talabalarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir so'zning bolalar hissiyatini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish zarur.

Darhaqiqat, kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi[2] deyish mumkin.

Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi:

Ijtimoiy, shaxsiy, psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion, kommunikativ va boshqa kompetentliklarni sanash mumkin. Shuningdek, kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olishni o'z ichiga oladi. Aynan mana shu kreativ kompetentlik xususiyatlari musiqa o'qituvchisida qanday namoyon bo'lishi haqida ilmiy yondashishni maqsad qilib oldik.

Musiqa o'qituvchilarining kreativ kompetentligi boshqa o'qituvchilarga nisbatan serqirra xususiyatga ega ekanligini hisobga olsak, ular tomonidan alohida bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishinigina emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishi nazarda tutiladi. Shuningdek, mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, ya'ni, cholg'u ijrochiligi, xonanda ijrochiligi hamda musiqiy savodxonlik bo'yicha bilimlarini izchil boyitib borishi, sohadagi yangi axborotlarni o'rganib borishi, muhim ijtimoiy-pedagogik talablarni anglay olishi, yangi ma'lumotlarni izlab topishi, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida samarali qo'llay bilishni taqozo etadi.

O'zbekistonlik pedagog olimlar N.S.Saidahmedov, Sh.S.Sharipov jumladan, O.Musurmonovalarning tadqiqot ishlarida: "ta'lim muassasalarida ta'limni insonparvarlashtirish hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish, uzluksiz ta'lim muassasasi o'qituvchilarining kompetensiyasi va unga qo'yiladigan didaktik talablar" [2] deb, tushuntiradilar.

Bugungi kunda "kompetensiya" tushunchasi olimlarning fikricha, kasb egasiga zarur bo'lgan qonunlar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar shuningdek, shaxsiy deontologik me'yorlar yig'indisini anglatadi.

"Kompetentlik" esa shaxsiy amaliy faoliyat bilan bog'liq bo'lib, kompetensiya me'yorlarini jamiyat talablaridan kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir[4].

Kompetensiya tushunchasi shaxsga nisbatan umumiylik kasb etsa, kompetentlik individuallik xarakteriga egadir. Kompetentlikning asosiy mezon mahsuldor faoliyat, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash sifati bilan belgilanadi. "Kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari mazmunan bir xil maqsadga qaratilsa-da, mohiyatidan bir-biridan farq qiladi. "Kompetentlik" amaliy faoliyat bilan bog'liq bo'lib, tajriba orqali kompetensiya talablarini bilim, ko'nikma, malaka orqali namoyon etish darajasi demakdir.

Bugungi bo'lajak musiqa o'qituvchisi kasbiy faoliyatini o'z burchlari va deontologik talablar asosida tashkil etishi hamda o'zida mavjud bo'lgan kompetentlikka tayanib, barkamol avlod tarbiyasida amalga oshirishni taqozo etadi.

San'at sohasini tanlagan o'qituvchi o'z burchini yuksak darajada anglash salohiyati, ijrochilik mahoratini takomillashtirishi hamda ijodkorlik faoliyatini tartibga solib boshqarib turadi. Unda mas'uliyat hissi qancha yuqori bo'lsa, ta'lim-tarbiya ishlarini bajarishga, shu bilan birga ijrochilikka ham shunchalik kuch sarflaydi. Burch, mas'uliyat qoniqarsiz darajaga kelib qolsa, o'qitish ham ijodkorlik ham, musiqiy ijrochilik ham sifatsiz darajaga tushadi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisi kreativ kompetentlikka ega bo'lish uchun o'z ustida ishlashi va o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.

Shuning uchun musiqa o'qituvchisining kreativ fikrlashi va o'z-o'zini shakllantirishi borasida batafsil to'xtalamiz. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi tomonidan o'zini ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan rivojlantirishi, maqsadga erishish yo'lida izchil, tizimli harakatlarning tashkil etishi, ya'ni, kasbiy bilim, ko'nikma va malakasini takomillashtirib borishi, o'zining faoliyatiga tanqidiy va ijodiy yondosha olishi, ishchanlik qobiliyatini rivojlantirishi, salbiy odatlarni bartaraf etib, ijobiy sifatlarni esa, o'zlashtirib borishini taqozo etadi.

Musiqa o'qituvchisi o'z ustida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondosha olishi qo'l keladi. Uning loyihali yondoshuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishi maqsadga muvofiqdir. Modelda o'z ustida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar qayd etiladi. Har bir bosqich uchun belgilangan vazifalarning samarali hal etilishi navbatdagi bosqichga o'tish imkonini beradi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kreativ kompetentligini oshirib borish maqsadida o'z ustida ishlash modeli

Bosqichlar	Ularda amalga oshiruvchi vazifalar	Qaydlar
1-bosqich	O'z faoliyatini tahlil qilib yutuq va kamchiliklarini qayd etib borish	
2-bosqich	Yutuqlarni boyitib, kamchiliklarni bartaraf etib borish	
3-bosqich	Kasbiy talablarni tafakkur bilan o'rganib, talabga javob berish uchun amaliy harakatlarni samarali yo'llarini izlash	
4-bosqich	Izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o'zlashtirib borish	
5-bosqich	Ilg'or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo'lib borish	
6-bosqich	Ijro mahoratini takomillashtirib borish	

Yuqoridagi bosqichlarni amalga oshirish borasida bo'lajak musiqa o'qituvchisi kreativ kompetentlikka ega bo'lishida o'zini o'zi tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi. O'zini o'zi tahlil qilish orqali esa o'zini o'zi obyektiv baholash imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Mohiyatga ko'ra o'zini o'zi baholash shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o'ziga obyektiv baho berish, o'zidan qoniqishni ta'minlaydi. Qolaversa, o'z-o'zini baholash shaxsning qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashadi. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin shaxsni bunga bevosita tayyorlash mumkin. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak musiqa o'qituvchisining ham o'zini o'zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kreativ kompetentligini oshirib borish maqsadida o'z-o'zini baholash modeli

Bosqichlar	Ularda amalga oshiruvchi vazifalar	Baho
1-bosqich	Cholg'u ijrochiligini amalga oshirishda o'z ijrosini audio yozuviga olib eshitadi	
2-bosqich	Notaga qarab solfedjio qiladi, audioga yozib oladi, eshitadi hamda baholaydi. Bunda sof kuylash maqsad qilib olinadi	
3-bosqich	Nutq madaniyatini tekshirish uchun musiqaga oid matnlarni intonnatsiya bilan o'qib yozib oladi va o'zi eshitib baholaydi	
4-bosqich	Musiqani tinglaydi hamda tahlil etish mahoratini baholab boradi	
5-bosqich	Biror asarni transpozitsiya qilib ijro qiladi hamda yozib oladi va uni eshitadi	
6-bosqich	Darsni samarali tashkil etish bo'yicha mavzularga yondashilgan interfaol metodlarni to'g'ri tanlay olishi hamda yangi g'oyalar ustida ishlay olishini baholab boradi	

XULOSA

Bo'lajak musiqa o'qituvchi bevosita umumiy o'rta ta'lim maktabi musiqa madaniyati fani uchun yetuk mutaxassis bo'lishini hisobga oladigan bo'lsak, musiqa madaniyati fani uchun yaratilgan milliy o'quv dasturidagi umumiy o'rta ta'lim bitiruvchilariga amaliy fanlar bo'yicha qo'yiladigan kompetensiyalarga javob bera oladigan darajada ekanligini his etib borishi lozim. Bo'lajak musiqa o'qituvchisida kreativlik kompetensiyani ta'minlash uchun ijodkorlik kompetensiyasi muhim rol o'ynaydi va quyidagi komponentlarga ega bo'ladi:

- go'zallik va san'atni idrok etadi;

PEDAGOGIKA

- mustaqil ishlashga ijodiy yondashib, kreativ fikrlaydi;
- yakka va jamoa bilan hamkorlikda ijodiy faoliyat yuritadi;
- ijodiy faoliyatini to'g'ri rejalashtirib, erishilgan natijasini tanqidiy baholay oladi va o'z mehnatidan zavqlana oladi;
- muammolar yechimiga muqobil yondashadi va to'g'ri qaror qabul qila oladi;
- mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik hamda ishchanlik, faollik sifatlarini egallaydi;
- konstruktiv fikrlay oladi, g'oyalarni amaliyotga tatbiq eta oladi; loyihalash va tadqiqotchilik ko'nikmalarini egallaydi.
- amaliy ishlarni mantiqiy ketma-ketlikda to'g'ri bajaradi;
- o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholab, faoliyatini oqilona rejalashtiradi;
- muammoni yechimini topishda mavjud resurslardan samarali foydalanadi;
- faoliyatining barqarorligi va o'zining farovonligini ta'minlay oladi[9].

Demak, bo'lajak musiqa o'qituvchisi o'z ustida ishlashi hamda o'z-o'zini baholash modelidan oqilona foydalansa, yuqoridagi komponentlarga loyiq bo'lib borishini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисидаги 02.02.2022 йилдаги ПҚ-112-сон қарори.
2. Муслимов Н.А., ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси/ Монография. – Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2013.
3. Муслимов Н.А ва бошқалар. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. Ўқув методик қўлланма. – Т.: “Sano-standart”, 120 – .2015 б.
4. Умумий педагогика. Қисм 1: дарслик / О.Мусурмонова [ва бошқ.]. – Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2020. – 376 б.
5. Брякова И. Е. Креативная компетентность педагога – новый вектор развития образования //Педагогический имидж. – 44(3 .№ – .2019).
6. Авазбоев А. И., Пардабоев Ж. Э. Талабаларда креативлик сифатларини ривожлантиришнинг самарали йўллари //Современное образование (Ўзбекистан). – 8 .№ – .2018.
7. Ибрагимова Г. Н. Олий таълим тизимида интерфаол технологиялар воситасида талабалардаги ижодий фикрлашни ривожлантириш //Современное образование (Ўзбекистан). – 4 .№ – .2017.
8. Акбарова, С. (2022). Основы развития креативных компетенций студентов в процессе самостоятельного обучения. Экономика и образование, 23(2), 311–316. извлечено от <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/473>
9. Кадырова, М. Т. Компетентлик ёндашуви назарияси ва унинг педагогик мазмунига доир қарашлар // Молодой ученый. — 2020. — № 43 (333). — С. 343-345. — URL: <https://moluch.ru/archive/333/74450/> (дата обращения: 18.11.2021).
10. Ўзбекистон республикаси мусиқа маданияти миллий ўқув дастури. Т. 2022 йил.